

## O'ZBEK TILI IZOHLI LUG'ATLARIDAGI IQTISODIY TERMINLARNING SEMANTIK TUZILISHI XUSUSIYATLARI

**Almardanova Iroda Toshmamatovna**

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*

*O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи o'qituvchisi*

*almardonovairoda72@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o'zbek tili izohli lug'atlarida uchraydigan iqtisodiy terminlarning semantik xususiyatlari, ularning leksik-semantik tuzilishi, ko'pma'nolilik, sinonimiyaga oid xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy atamalarning lug'atlardagi ifodalananish shakli va ularning tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'r ganilishi haqidafikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *iqtisodiy termin, izohli lug'at, semantik tuzilish, sinonimiya, polisemantizm, leksik-semantik maydon.*

**Kirish:** Iqtisodiy fanlarning taraqqiyoti va ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ortib borgani sayin, bu sohaga oid atamalarning adabiyot va lug'atlardagi roli ham tobora oshib bormoqda. Xusan, O'zbek tili izohli lug'atlarida iqtisodiy terminlarning mazmuni va qo'llanishi tilshunoslik va terminshunoslik sohalari uchun dolzarb masalalardan biridir. Bunday terminlar semantik jihatdan boy, ko'p qirrali va kontekstga bog'liq holda talqin qilinadi.

### Asosiy qism

#### 1. Iqtisodiy terminlarning leksik-semantik xususiyatlari

O'zbek izohli lug'atlarida iqtisodiy atamalar ko'p hollarda boshqa tillardan o'zlashtirilgan: marketing, investitsiya, kapital, budjet, foyda kabi so'zlar asosan rus va ingliz tillaridan kirib kelgan. Bu so'zlar o'zbek tilining fonetik va morfologik tizimiga moslashgan holda ishlataladi.

#### 2. Polisemantik (ko'p ma'nolilik) holatlar

Ba'zi iqtisodiy terminlar bir nechta ma'noga ega. Masalan:

**Ayrboshlash 1** Ayrboshlash fe'sharakat nomi

2 iqt. Kishilarning mehnat faoliyati yoki mahsulotlarini o'zaro almashtirishlari.

**Aylanmoq 1** O'z o'qi yoki biror narsa tevaragida harakat qilmoq, aylana bo'ylab davra olib yurmoq.

**2 Sayr-tomosha** yoki boshqa maqsadda kezmoq

**3 Biror yerda** yoki doirda o'ralashib yurmoq; aylanishmoq.



**4.iqt.** Muamolada bo‘lmoq, yurmoq. Pulning aylanishi.

5 Boshqa narsaga, boshqa holatga o‘tmoq. Suv muzga aylandi.

6(ayrim so‘zlar bilan) Tusini kasbetmoq, shunday bo‘lmoq

Aylanib o‘tmoq 1) biror narsaning atrofi bilan o‘tmoq. Binoni aylanib o‘tmoq; 2) hisobga olmaslik olmaslik, chetlab o‘tmoq...

**Boshqarish 1 Boshqarmoq** fe’l harakat nomi Xo‘jalikni boshqarish.Oilani boshqarish.

**2 iqt.** Xo‘jalik obyektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga solish va yo‘naltirish jarayoni. Boshqarishning iqtisodiy ma’muriy usuli.

**Taqchillik 1** Yetishmaslik holati, taqchil hol. Yog‘och, taxta taqchilligi. – Respublikamiz sug‘orma dehqonchiligidagi ma’lum darajada suv taqchilligi sezilib turadi. “Fan va turmush”

**2 iqt.** ilgari belgilangan rejalashtirilgan yoki zarur darajadagi mablag‘, resurs, tovarlarning yetishmasligi, tanqisligi; defitsit. Tovarlar taqchilligi. Byudjet taqchilligi.

**Tavakkalchilik 1** tavakkal bilan ish tutish, tavakkal ish. Bilimsiz tajribasiz bolalarni mening qarshiligidagi qaramay, qaltis tavakkalchilikka boshlagan siz emasmi edingiz? A.Muxtor, Tug‘ilish. Buyuk ishlarning ko‘pchilligi tavakkalchilik bilan qo‘lga kirgan, buni inkor qilib bo‘lmaydi. J.Abdullaxonov, To‘fon.

**2 iqt.** Foydadan mahrum bo‘lish va boshqa sabablarga ko‘ra zarar ko‘rish singari yomon oqibatlar ro‘y berish ehtimoli. Tavakkalchilikka aoslangan o‘yinlar. Bu umumiyoq so‘zlar iqtisodiy kontekstda maxsus ma’noga egadir

3. Sinonim terminlar va ularning ma’nodagi tafovutlari

O‘zbek tilida ba’zi iqtisodiy terminlar uchun ikkita yoki undan ortiq sinonimik variant mavjud:

**Ruxsatnama** [ruxsat +noma] 1 Yozma ravishda berilgan ijozat, ruxsat. Navbatchi politsiyachilar ruxsatnomani ko‘rib bizni ichkariga qo‘yishdi. “Fan va turmush”. – Mana order. – Zohid shunday deb ruxsatnomani ko‘rsatdi. T.Malik. Shaytanat.

**2 iqt. ayn. litsenziya 1** ... chetga chiqariladigan mahsulot uchun ruxsatnama berish tartibi anchagini soddalashtirildi. Gazetadan.

Setka [r.cetka-kichkina to‘r] 1 Ip, plastmassa va b.dan to‘qiladigan to‘rxalta.[Xola]Qo‘lidagi setkaga non, ovqat, bir-ikki bosh uzum solib, yo‘l o‘rtasida bir student yigitdan klinikaga qanday borishni so‘radi. Mirmuhsin, Umid.Birov ishga shoshilyapti, birov bozordan kelyapti, ikki qo‘lida setka. O‘Umarbekov, Yoz yomg‘iri.





**2 iqt. ayn. jadval.** Tarif setkasi.

**Sinish 1 Sinmoq** fl.har.n. Piyolaning sinishi. Daraxt shoxining sinishi. – Goho qamchining zaharli charsillash, tayoqning qars etib sinishi va g‘azabli hayqiriq eshitiladi. O.Yoqubov, Er boshiga ish tushsa.

**2 fiz.** Bir muhitdan ikkinchi muhitga o‘tishda yorug‘lik yo‘nalishining o‘zgarishi. Yorug‘likning qaytishi va sinishi. Sinish burchagi

**3 iqt. q. bankrotlik.**

Ruxsatnoma – **litsenziya**

Setka – **jadval**

Sinish – **bankrotlik**

Bu holat lug‘at tuzuvchilarning yondashuvini murakkablashtiradi. Shuning uchun har bir sinonim terminning aniqlik darajasi va ishlatilish doirasi lug‘atda qat’iy belgilanishi zarur.

**4. Morfologik va sintaktik qurilmalarda terminlarning ishtiroki**

Iqtisodiy terminlar ko‘plab birikmalarda faol ishlatiladi: iqtisodiy rivojlanish, monetar siyosat, strategik investitsiya va h.k. Bu birikmalar sintaktik struktura doirasida barqaror termin birikmalariga aylangan.

**5. Leksik-semantik maydon doirasida tahlil**

“Iqtisodiyot” yadro termini atrofida quyidagi terminlar tizim hosil qiladi:

**Eksport** [ing.export<lot.exportare- chetga (tashqi bozorga)chiqarmoq] iqt. Sotish yoki boshqa maqsadlarda chet ellarga mol va yoki kapital chiqarish va 4chiqarilgan mol, kapital; zid.import. Bir so‘z bilan aytganda, respublikamiz import o‘lkasidan eksport o‘lkasiga aylanib bormoqda. Gazetadan.

**Eksport-import**

**Taklif 3** iqt. Muayyan vaqtida va muayyan narxlari bilan bozorga chiqarilgan va chiqarilishi mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdorini ifodalovchi tushuncha.

**Talab 4** iqt Xaridor, iste’molchining bozorda muayyan tovarlarni, ne’matlarni sotib olish istagi. Muayyan tovarga yoki tovarlar to‘plamiga barcha xaridorlar bildirgan talab yig‘indisi bozor talabi deyiladi. “O‘zME”.

**Taklif –talab**

Bu terminlar semantik jihatdan bir-biriga bog‘liq bo‘lib, izohli lug‘atda ularning munosabati ochiq ifodalangan bo‘lishi kerak.

**Xulosa:** O‘zbek tili izohli lug‘atlarida iqtisodiy terminlarning semantik tuzilishini o‘rganish orqali nafaqat iqtisodiy bilimlarning tilga ko‘chishi, balki tilning ijtimoiy funksiyasi va rivojlanish bosqichlarini ham aniqlash mumkin. Bu





terminlarning semantik tahlili, sinonimiya, polisemantizm, leksik-semantik maydonlar bo‘yicha klassifikatsiyasi ilmiy jihatdan muhim vazifalardan biridir. Kelajakda iqtisodiy terminlar lug‘atini alohida soha lug‘ati sifatida rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1–5 jild. – T.: Fan nashriyoti, 2006–2008.
2. Iqtisodiy terminlar izohli lug‘ati. – T.: Iqtisodiyot, 2015.
3. Rasulov R. “Tilshunoslik va terminshunoslik masalalari”, – T.: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2020.
4. Komilov N. “Terminologiya nazariyasi va amaliyoti” – T.: Fan, 2007.

